

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETIDA 15-16-SENTABR

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G‘OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK” MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY VA ILMIY-TEXNIK
KONFERENSIYA MATERIALLARI

2-qism

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION, AND ECONOMY IN THE
FIELD OF CONSTRUCTION AND ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL REPUBLICAN CONFERENCE

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ И
ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

URGANCH-2025

TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A.Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R.Q. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

- ❖ Davlat tomonidan iqtisodiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish.
- ❖ Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapitalni jalb etish.
- ❖ Marketing va brend siyosatini kuchaytirish.

Ushbu omillar uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, qurilish korxonalari nafaqat milliy bozorda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli raqobat qila oladi.

ADABIYOTLAR

1. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hisobotlari, 2023.
3. Xodjayeva N. “Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholash omillari” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4, 2022.
4. World Bank. Doing Business in Construction Sector. Washington, 2021.
5. Sattarov N. “Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish” Monografiya. “Khwarezm publication”, 2025.

QURILISH MATERIALLARI VA SINOV LABORATORIYALAR FAOLIYATINI XALQARO STANDART TALABLARI ORQALI MUVOFIQLASHTIRISH

N.Sh. Mo‘minov - Toshkent arxitektura – qurilish universiteti, “Shahar infraturilmasi” kafedrası professori, t.f.d.

O.Sh. Eshmurodova – Toshkent arxitektura – qurilish universiteti,
“Qurilish materiallari va konstruksiyalari texnologiyasi” kafedrası tayanch
doktoranti

Annatatsiya

Ushbu maqolada qurilish materiallari haqida ularning xalqaro standart talablariga muvofiqlik darajasi, qurilish materiallariga oid standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish darajasi va ularning sifat va xavfsizlik ko‘rsatgichlarini baholovchi sinov laboratoriyalari ularning kompetentligi, layoqatliligini baholash va ularning akkreditatsiya sohasi, qurilish materiallariga oid standartlar va tizimdagi kamchiliklar tahlil qilingan va xulosalar tayyorlangan.

Аннотация

В данной статье проанализированы и подготовлены выводы о степени соответствия строительных материалов требованиям международных стандартов, степени гармонизации стандартов на строительные материалы с международными стандартами, испытательных лабораториях, оценивающих показатели их качества и безопасности, оценке их компетентности, пригодности и области их аккредитации, стандартах на строительные материалы и недостатках в системе.

Abstract

In this article, the level of compliance of building materials with the requirements of international standards, the degree of harmonization of building materials standards with international standards, testing laboratories that assess their quality and safety indicators, assessment of their competence, suitability, and scope of their accreditation, standards for building materials, and shortcomings in the system were analyzed and conclusions were prepared.

Kalit soʻzlar

Sinov laboratoriyalari, muvofiqlikni baholash, texnik jihatdan tartibga solish, xalqaro standartlar

Ключевые слова

Испытательные лаборатории, оценка соответствия, техническое регулирование, международные стандарты

Keywords

Testing laboratories, conformity assessment, technical regulation, international standards

Kirish

Rivojlangan mamlakatlar qatori mamlakatimiz ham jadal rivojlanishlar yoʻlidan bormoqda. Raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish boʻyicha barqaror oʻsish suratlarni taʼminlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy oʻzgartirishlarni yanada chuqurlashtirish [1], texnik jihatdan tartiba solish tizimini muvofiqlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 23.05.2019 – yildagi PQ-4335-sonli qarorining 4-bandi “v” kichik bandida “tegishli

sinovlardan o'tgan va belgilangan tartibda muvofiqlik sertifikatini berilgan qurilish materiallari qurilish ishlarida qo'llanilishi mumkin"ligi[1] belgilanganini, va bu qurilish materiallarining belgilangan talablarga muvofiqligini baholash nihoyatda muhimligini ko'rsatadi.

Qurilish materiallarining belgilangan talablarga muvofiqligini uning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash albatta sinov laboratoriyalar orqali amalga oshiriladi. Bunda sinov laboratoriyalarining kompetentligi, layoqati uning faoliyati ham xalqaro standart talablariga javob berishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to'g'risida"gi 15.09.2019 – yildagi PQ-4419-sonli qarorida muvofiqligi majburiy tasdiqlanishi lozim bo'lgan mahsulotlarning sinovlarini amalga oshirish faqat akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalarda amalga oshirish belgilangan [2]

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida" gi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi va "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida" gi qonunlarning qabul qilinishi hukumatimiz tomonidan muvofiqlikni baholash va texnik jihatdan tartibga solish sohasida qonuniy asoslarini yaratmoqda. "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risida"gi qonunning 4 – moddasida akkreditatsiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- manfaatdor taraflarning akkreditatsiyadan o'tgan subyektlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini ta'minlash;
- muvofiqlikni baholash sohasida yagona texnika siyosati amalga oshirilishini ta'minlash;
- akkreditatsiya qilingan subyektlarning faoliyati natijalari xalqaro darajada tan olinishi va qabul qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratish [3].

"Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunda texnik jihatdan tartibga solishning asosiy prinsplari keltirilgan:

texnik reglamentlarni qo'llashning birligi;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida tadbirkorlik subyektlarining kamsitilishiga va insofsiz - raqobatga yo‘l qo‘yilmasligi;

texnik jihatdan tartibga solishning hamda muvofiqlikni baholashning birligi va yaxlitligi;

muvofiqlikni baholash organlarining ishlab chiqaruvchilardan, sotuvchilardan va xaridorlardan (iste’molchilardan) mustaqilligi;

muvofiqlikni majburiy baholash tartib-taomillarini amalga oshirishda sinash hamda o‘lchash qoidalarining va usullarining birligi;

davlat nazoratiga va muvofiqlikni baholashga doir vakolatlarning bir organ tomonidan birga qo‘shib bajarilishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

ikki va undan ortiq davlat nazorati organida ayni bir vakolatlarning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmasligi [4].

Mamlakatda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha katta marralar belgilangan. Ushbu belgilangan vazifa va prinsplarni amalga oshirish jarayonida albatta zamonaviy sinov laboratoriyalarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Mahsulotlarning sifat va xavfsizlik ko‘rsatgichlarini baholashda, ularning belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlashda sinov laboratoriyalari faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyatga egadir.

“Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunning 4 - moddasida sinash laboratoriyasi ta’rifi quydagicha keltirilgan:

sinash laboratoriyasi - sinashni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki uning tarkibiy bo‘linmasi [4].

Ushbu sinov laboratoriyalarida amalga sinov natijalarini xalqaro darajada tan olinishiga erishish bugungi kunning dalzarb vazifalaridandir. Respublikamizda jami 269 ta sinov laboratoriyalarining atigi 64 tasida o‘tkazilgan sinovlar xalqaro darajada tan olinadi. Oqibatda mahsulotlarni eksportga yo‘naltirgan tadbirkor uchun bu ortiqcha texnik to‘siqlarni yuzaga keltirib, mahsulotlari uchun qo‘shimcha sinovlarni o‘tkazishga majbur bo‘lmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2024 yil 10 – oktyabr kuni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ishlar bilan tanishish jarayonida ushbu

kamchiliklarga to'xtalib, tashqi bozorga chiqish uchun samarali texnik tartibga solish tizimi shartligi ta'kidlab, qo'shimcha vazifalar belgilab berdi. Shu bois xalqaro laboratoriyalarni ko'paytirish, elektr texnikasi, qurilish materiallari, mashinasozlik kabi sohalarda 10 ta yangi laboratoriya tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Akkreditatsiya markazi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalar soni kalibrlash laboratoriyalari 21 ta, sinov laboratoriyalari 227 tani tashkil qiladi. Ushbu laboratoriyalar O'z DSt ISO/IEC 17025:2019 standart talablari bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan. Ammo aksariyat laboratoriyalarda foydalaniladigan sinov qurilmalari zamonaviy talablarga javob bermasligi, sinov usullarining eskiligi, va yetarli emasligi, hodimlarning yetarli darajada ko'nikmaga ega emasligi sohada jiddiy kamchiliklarni keltirilmoqda. Ayniqsa hozirgi zamonaviy qurilish industriyasining rivojlanishida qurilish materiallarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarga majburiy talablarni belgilovchi standartlarning ham eski talablarning xali hamon qo'llanilayotganligi ulardan voz kechilmayotganligi, yangi zamonaviy standart talablari bilan uyg'unlashtirilishning past darajasi - bu qurilish materiallarini ishlab chiqarish uning muvofiqligini baholash, realizatsiya qilish va eksport qilishda juda katta qiyinchilik va to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumot o'rnida, O'zbekistonda qurilish sanoatida jami 1915 ta standartning atigi 39% xalqaro standartlar talablari bilan uyg'unlashtirilgan. Taqqoslash uchun Turkiyada qo'llaniladigan jami 2143 ta standartning uyg'unlashtirilish darajasi 89.3% tashkil qiladi.

Xulosa/tavsiyalar. Qurilish materiallari sifatini belgilovchi sinov laboratoriyalarining xalqaro standartlarga muvofiqligi bugungi kunda O'zbekistonda qurilish sohasini barqaror rivojlantirishda muhim omillardan biridir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud laboratoriyalar faoliyatida bir qator tizimli kamchiliklar mavjud: xalqaro standartlar (xususan, ISO/IEC 17025) bilan muvofiqlik past, sinov metodikalari eskirgan, hamda akkreditatsiya va sifat menejmenti tizimi yetarlicha joriy etilmagan.

O'zbekistondagi ko'plab sinov laboratoriyalari GOST va SNIP kabi eski standartlarga tayanib ishlamoqda, bu esa global qurilish bozori talablariga mos kelmaydi.

Sinov metodikalarida ASTM, EN, ISO standartlariga muvofiqlik yetarli emas, natijada sinov natijalarining xalqaro tan olinishi kafolatlanmagan.

Laboratoriyalarning aksariyati ISO/IEC 17025 talablariga to'liq javob bermaydi, bu esa ularning akkreditatsiyadan o'tishida muammolar tug'diradi.

Mutaxassislarning xalqaro metodika va standartlarga doir malakasi yetarli darajada emas, uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimi mavjud emas.

Xalqaro standartlarni tarjima qilish jarayonida ham yetarlicha kamchiliklar mavjud. Shu kamchiliklarni inobatga olib, ushbu sohada ta'lim oluvchi mutaxasislarni chet tilini o'rganishlari uchun yetarlicha sharoit va rag'batlantirish tizimini yaratish zarur

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar ham xorijiy standartlar asosida mahsulot ishlab chiqarganda ushbu tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlarini berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 23.05.2019 – yildagi PQ -4335-sonli
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori 15.09.2019 – yildagi PQ -4419-sonli
3. O'zbekiston Respublikasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to'g'risidagi"gi qonuni 27.02.2023 – yildagi O'RQ - 820 -son
4. O'zbekiston Respublikasining "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonuni 27.02.2023 – yildagi O'RQ -819 -son